# SHARTNOMA № 08-11/21

xizmatlar ko'rsatish uchun

**"Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi"**

**2021 yil 09 dekabr** **Toshkent sh.**

**"O'ZEKSPOMARKAZ" MKK" AJ** bundan keyin **"TASHKILOTCHI"** deb yuritiladi, Ustav asosida 29.11.2021 yildagi 18-XS-sonli buyruq asosida ish yurituvchi boshqaruv raisi v.v.b. **S.Kudratov**, bir tomondan "O'ZTRANSGAZ" AJ undan keyin **"ISHTIROKCHI"** deb yuritiladi Nizom asosida harakat qiluvchi boshqaruv raisi B.Narmatov boshqa tomondan, ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Tashkilotchi "Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi" (2021 yil 14-18 dekabr) doirasida, Toshkent shahar Yunusobod tumani A.Temur ko'chasi, 107-uy manzilida joylashgan "O'zekspomarkaz" MKK"AJ hududida, 30 $M^2$ jihozlanmagan ko'rgazma maydonini, ko'rgazma faoliyati davrida jihozlarni montaj va demontaj qilish huquqi bilan, vaqtinchalik foydalanish uchun taqdim etish majburiyatini oladi.

1.2. Ko'rgazmaning ochilish kuni soat: 10:00 dan 17:00 gacha, ko'rgazmaning oxirgi kuni: 10:00 dan 16:00 gacha. Ko'rgazmaning barcha kunlarida ishtirokchilar, ko'rgazma pavilonlariga 09:00 dan kiradilar.

1.3. Ko'rgazma stendlarini o'rnatish tashkilotchi tomonidan 09:00 dan 18:00 gacha amalga oshiriladi.

1.4. Asosiy stendlarni o'rnatish ishtirokchilar tashrif buyurgan kuni soat 09:00 dan kechiktirilmay bajarilishi kerak.

1.5. Ko'rgazma ishtirokchilari, mehmonlar va tashrif buyuruvchilarga kirish, tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq tadbirlar tashkilotchi tomonidan tashkil qilinadi. Tashkilotchi ko'rgazma ishtirokchilari va mehmonlarini ro'yxatga olish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi va uning o'tkazilishini ta'minlaydi va bu haqida ishtirokchini xabardor etadi.

1.6. Ko'rgazma stendlarini demontaj qilish ko'rgazmaning oxirgi kuni soat 16:00 da boshlanadi va keyingi ikki kun davomida soat 09:00 dan 18:00 gacha amalga oshiriladi.

## 2. SHARTNOMA SHARTLARI VA NARXLARI

2.1. Yopiq jihozlangan ko'rgazma maydonining ijaraga olish narxi, $1m^2$ asosiy ko'rgazma stendi – 1 100 000 (bir million bir yuz ming) so'm, shu jumladan QQS 15%.

Asosiy stend tarkibiga quyidagilar kiradi: stend atrofidagi devor paneli (rejadagi holatiga qarab) stenddagi kompaniyaning nomi (10 harflaridan ko'p bo'lmagan Freeze yozuvi), gilam, orqa yorug'lik chiroqlari ($9m^2$ maydonga 2 ta chiroq), stol ($9m^2$ maydoniga 1 ta stol), ofis stullari ($9m^2$ maydoniga 2 ta stul), axlat qutisi, bitta rozetkali elektr ta'minoti (stendga).

2.2. Jihozlanmagan yopiq ko'rgazma maydonining ijaraga olish narxi, $1m^2$ – 805 000 (sakkiz yuz besh ming) so'm, shu jumladan QQS 15%.

2.3. Ochiq ko'rgazma maydonini ijaraga olish narxi, $1m^2$ – 332 000 (uch yuz o'ttiz ikki ming) so'm, shu jumladan QQS 15%.

2.4. Asosiy ko'rgazma stendining qurilish qiymati, $1m^2$ - 295 000 (ikki yuz to'qson besh ming) so'm, shu jumladan QQS 15%.

2.5. ISHTIROKCHINING qo'shimcha buyurtmasi bo'yicha TASHKIL ETUVCHI qo'shimcha uskunalar bilan ta'minlaydi va "O'ZEKSPOMARKAZ" MKK"AJning amaldagi normativlariga muvofiq qo'shimcha xizmatlar ko'rsatadi.

| № | Nomi | O'lchov birligi | Miqdor | Narxi shu jumladan QQS 15% | Miqdori shu jumladan QQS 15% |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Jihozlanmagan yopiq ko'rgazma maydoni | $M^2$ | 30 | 805 000 | 24 150 000 |
| 2 | Elektr rozetkasi, 380 volt, 5 kw. | dona | 1 | 880 000 | 880 000 |
| | Elektr rozetkasi, 220 volt, 2 kw. | dona | 1 | 495 000 | 495 000 |
| | **Umumiy qiymati** | | | | **25 525 000** |

2.6. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnoma bo'yicha umumiy qiymati 25 525 000 (yigirma besh million besh yuz yigirma besh ming) so'm, shu jumladan QQS 15% ni tashkil etadi.

## 3. HISOBLASH TARTIBI

3.1. ISHTIROKCHI TASHKILOTCHIning hisob raqamiga ushbu shartnomaning 2.6-bandida ko'rsatilgan summani 2021 yil 12 dekabrdan kechiktirmagan holda 100 % oldindan pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshirishi majburiyatini oladi.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, ISHTIROKCHI TASHKILOTCHIga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4 foiz miqdorida jarima to'laydi, ammo kechiktirilgan to'lov miqdorining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima to'laydi.

4.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar bajarilmasa TASHKILOTCHI ISHTIROKCHIGA kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida jarima to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori bajarilmagan ishlar yoki tasdiqlanmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima to'laydi.

4.3. TASHKILOTCHI ko'rgazma ISHTIROKCHISIGA tegishli eksponatlar va boshqa moddiy boyliklarni yo'qolishi yoki ularga zarar yetkazilishini, shuningdek, montaj, ko'rgazma ish soatlari va demontaj vaqtida ko'rgazma ISHTIROKCHIsida ishlaydigan shaxslarga yoki ularning mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

4.4. TASHKILOTCHIga ko'rgazma ochilishiga qadar 7 kundan kam muddatda buyurtma qilingan bo'lsa, qo'shimcha ko'rgazma uskunalarini taqdim etishga kafolat bermaydi.

4.5. ISHTIROKCHI uskunadan yoki ko'rgazma stendidan vaqtinchalik foydalanish uchun unga taqdim etilgan uskunalarning xavfsizligi uchun javobgar bo'ladi, agar zarar yetkazilsa, ISHTIROKCHI TASHKILOTCHI tomonidan taqdim etilgan hisob-kitob asosida, asbob-uskunalar yoki ko'rgazma stendining 100 foizini qoplaydi.

4.6. Agar ISHTIROKCHI shartnoma bo'yicha xizmatlar uchun haq to'lagan bo'lsa, lekin ko'rgazmada 30, 20 yoki 10 kun oldin ishtirok etishdan bosh tortgan bo'lsa, TASHKILOTCHI 25%, 50% va 100% miqdorida jarimani ushlab turish huquqiga ega. Bunda ishtirokchi TASHKILOTCHI

ni ishtirok etishdan bosh tortgani haqida ko'rgazma boshlanishidan 10 kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

4.7. Xizmatlar ISHTIROKCHI yoki uning vakolatli vakili tomonidan xizmatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin ko'rsatilgan hisoblanadi.

4.8. Taraflar uchun ushbu shartnomada belgilanmagan javobgarlik masalasi O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi" va "Hujalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

## 5. FORS MAJOR

5.1. Mazkur Shartnoma imzolangandan keyin tomonlarning aybi bilan sodir bo'lmagan holatlar, xususan bartaraf etish imkoniyati bo'lmagan kuchlar ta'sirida, yoki favqulodda holatlar natijasida sodir bo'lgan, Tomonlar bu vaziyatni oldindan ko'ra olishlari mumkin bo'lmagan va barcha mavjud vositalar bilan ularni bartaraf eta olmagan vaziyat oqibatida tomonlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlarni bajarishdan qisman yoki to'liq ravishda ozod etiladilar. Bunday vaziyatlarga taalluqli: suv toshqini, yong'in, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, shartnoma ishtirokchilari ta'sirida bo'lmagan davlat organlari harakatlari.

5.2. Bartaraf etish imkoniyati bo'lmagan kuchlar paydo bo'lgan vaziyat to'g'risida Tomonlar bir birlarini ushbu vaziyat kelib chiqqan zahoti ogohlantirishlari kerak. Fors-major vaziyati kelib chiqqanligini isbotlovchi vaziyat vakolatli organ hujjatlari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Bunda shartnoma bo'yicha shartlarni bajarish muddati ushbu bartaraf etish imkoniyati bo'lmagan kuchlar harakati muddati tugaganiga qadar uzaytiriladi.

5.3. Fors-major harakatlari tugashi bilan Tomonlar bir-birlarini bu to'g'rida yozma ravishda xabardor qilishlari kerak.

5.4. Fors-major holati to'g'risida xabardor qilishdagi kamchiliklar: 3 (uch) kundan ko'p kunga kechiktirib fors-major holati to'g'risida xabar berish, fors-mojor vaziyati sodir bo'lganligi to'g'risida vakolatli organlarning tasdiqlangan hujjatlarini 25 (yigirma besh) kun davomida taqdim etmaslik natijasida Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmasliglarini ushbu fors-major vaziyati bilan himoya qilish huquqidan mahrum qiladi.

## 6. NIZOLARNI HAL QILISH

6.1. Ushbu SHARTNOMA yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan imkon qadar hal etiladi.

6.2. Agar tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan taqdirda, ushbu shartnoma bilan bog'liq barcha nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida yakuniy tartibga solinishi kerak.

## 7. MAXFIYLIK

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha olingan ma'lumotlar va hujjatlarga nisbatan maxfiylikka rioya etilishini kafolatlaydi.

## 8. ANTIKORRUPSION SHARTLAR.

8.1. Shartnoma asosidagi majburiyatlarni amalga oshirishda tomonlar qonunga zid haq-huquqni va boshqa foydani olish maqsadida biron bir shaxsga uning xatti-harakati va qaroriga bevosita va yoki bilvosita ta'sir qilish uchun biron bir pul mablag'larning yoki boshqa qimmatliklarning to'lanishini talab, taklif qilmaydilar va bunga ruxsat berishmaydi.

8.2. Shartnoma asosidagi majburiyatlarni amalga oshirishda tomonlar qonunchilikda pora va pora olish, xizmatchining tijorat porasi sifatida e'tirof etilgan xatti-harakatlarni shuningdek qonunchilik va xalqaro hujjatlarning jinoiy yo'l bilan va terrorizmni moliyalashtirish orqali olingan daromadni legallashtirish talablarini buzuvchi harakatlarni amalga oshirishmaydi.

8.3. Ushbu shartnomaning barcha tomonlari boshqa tomonning biron xatti-harakatni amalga oshirishini majbur etishi va unga undashiga olib keladigan pul mablag'lari, sovg'alar berish orqali, ularga nisbatan boshqa tekin xizmat va ishlarni amalga oshirish yo'li orqali ushbu korxona xodimini rag'batlantirishidan voz kechadi.

8.4. Tomonlarning biri biron antikorrupsiya shartlarining buzilishini taxmin qilsa yoki guvohi bo'lsa, u boshqa tomonni bu haqda yozma yoki ishonch telefonlari orqali tarzda ma'lum etishi lozim.

## 9. QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Ko'rgazma o'tkazish hududida, tijorat maqsadida ekspeditorlik vazifasini amalga oshiruvch ISHTIROKCHI hisoblanadi.

9.2. Shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin. O'zgarishlar ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha bitim bilan yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

9.3. Ushbu shartnomaning faksimil (skanerlangan) nusxalari, uning ajralmas qismlari, bajarilgan ishlar akti va asl nusxalar bilan almashtirilganga qadar qonuniy kuchga ega.

9.4. Ushbu SHARTNOMA imzolangandan so'ng, barcha oldingi muzokaralar va yozishmalarning kuchini yo'qotadi.

9.5. Tomonlar ko'rgazmalarda xavfsizlik qoidalariga, yong'inga qarshi, sanitariya va karantin qoidalariga rioya qilishlari shart.

9.6. Ushbu SHARTNOMA imzolangan vaqtdan boshlab "31" dekabr 2021 yilga qadar amal qiladi.

## 10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI

| «ISHTIROKCHI» | «TASHKILOTCHI» |
|---|---|
| "O'ZTRANSGAZ" AJ<br>100031, Toshkent sh.,<br>Yusuf Xos Hojib ko'chasi 31A-uy<br>Tel: (+998 71) 239-89-65<br>H/r: 2021 0000 9001 1783 6001<br>ATB «O'zsanoatqurilishbank» ... filiali<br>MFO: 00433, OKED 49500<br>STIR: 200 ... | **"O'ZEKSPOMARKAZ"MKK" AJ**<br>100084 Toshkent sh.<br>Amir Temur k. 107 uy.<br>Tel: 234-45-45, 234-40-90<br>faks 234-54-40<br>h/r 20 210 000 100 126 023 001<br>AKTB «Ipak yo'li» MFO 00421<br>ОКЭД 82300<br>STIR 201121745<br>**S.Kudratov** |

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**

**“Ўзтрансгаз” АЖ Бошқарув раиси ўринбосари,**
**Харид комиссияси раиси ўринбосари**

**_____________ Б.Р. Маматкаримов**
**“____” _________ 2021 йил**

**“Ўзтрансгаз” АЖ товарлар (ишлар, хизматлар) сотиб олиш учун**
**Харид комиссияси йиғилишининг**

**16-162 - сонли БАЁННОМАСИ**

“25” 11 2021 йил соат 15:45 Тошкент шаҳри

| | |
|---|---|
| **Раислик қилди:** | Б. Маматкаримов - “Ўзтрансгаз” АЖ Бошқарув раисининг молия ва маркетинг бўйича ўринбосари, Харид комиссияси раиси ўринбосари |
| **Иштирок этди (овоз бериш ҳуқуқи билан):** | Ш. Улугхужаев, С. Мирзамойдинов, С. Камалов, Ж. Киргизов К. Каюмов, Ж. Мансуров. |
| **Овоз бериш ҳуқуқисиз иштирок этди:** | Ф. Назаров |
| **Кворум:** | Мавжуд (_________%) |
| **Ўтган жой:** | “Ўзтрансгаз” АЖ |

**КУН ТАРТИБИ:**

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 ноябрдаги 02-РА 1/1-1782-сонли топшириғига асосан 2021 йил 14-18 декабрь кунлари ўтказилаётган Республика тармоқлараро саноат ярмаркасида “Ўзтрансгаз” АЖ учун кўргазма стендини ижарага олиш мақсадида тўғридан-тўғри шартнома тузиш тўғрисида.**

Харид комиссияси ушбу тендерни 22.04.2021 йилдаги Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.02.2018 йилдаги ПҚ-3550-сонли қарори ҳамда "Ўзтрансгаз" АЖнинг 24.05.2021 йилдаги 109-сонли буйруғи асосида амалга оширади.

“Йиғилишни Харид комиссияси раиси очиб берди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 ноябрдаги 02-РА 1/1-1782-сонли топшириғига асосан "Ўзтрансгаз" АЖ Харид комиссиясининг товарлар, ишлар ва хизматлар сотиб олиш учун импорт ва ички шартномаларни кўриб чиқиш бўйича йиғилиши ўтказилаётганлиги ҳақида эълон қилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 сентябрдаги ПҚ-3953-сонли “Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори иловасининг 10-бандига мувофиқ, Спорт, маданий-оммавий тадбирлар, кўргазмалар, ярмаркалар, анжуманлар, семинарлар ва ўқув машғулотларини ташкил этиш ҳамда ўтказиш учун бинолар, иншоотлар ва асбоб-ускуналарни ижарага олиш мақсадида тўғридан тўғри шартнома тузиш белгилаб ўтилган.

Харидлар ва кооперацион алоқалар Департаменти томонидан жиҳозланган ёпиқ кўргазма майдони ижарага олиш

| | | |
|---|---|---|
| **1** | **“Ўзэкспоцентр” МКК” АЖ** | **25 525 000 сўм** |

Олинган таклифга асосан 25 525 000 сўмга берганлигини инобатга олган ҳолда, жиҳозланган ёпиқ кўргазма майдони ижарага олиш учун ушбу ташкилот билан тўғридан-тўғри шартнома тузиш мақсадида 2021 йил 9 декабрдаги 08-11/21-сонли шартнома лойиҳаси олинди.

Юқорида келтирилган фикр-мулоҳазаларни инобатга олган ҳолда, “Ўзтрансгаз” АЖ харид комиссияси

**ҚАРОР ҚИЛДИ:**

1.“Ўзтрансгаз” АЖ учун жиҳозланган ёпиқ кўргазма майдони ижарага олиш учун “Ўзэкспоцентр” МКК” АЖ билан 25 525 000 сўмга тўғридан-тўғри шартнома имзолансин.

Овоз берган: **“РОЗИ” (___), “БЕТАРАФ” (___), “ҚАРШИ” (___).**

1. Харидлар ва кооперацион алоқалар департаменти бош мутахассиси Ж. Мансуров тижорат таклифларини қабул қилиш учун, уларнинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш, шунингдек, шартномани тайёрлаш ва кейинчалик жавобгар департаментлар билан шартномани мувофиқлаштириш учун масъул қилиб белгилансин.

Овоз берган: **“РОЗИ” (___), “БЕТАРАФ” (___), “ҚАРШИ” (___).**

**ТАСДИҚЛАНДИ**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 ноябрдаги 02-РА 1/1-1782-сонли топшириғига асосан 2021 йил 14-18 декабрь кунлари ўтказилаётган Республика тармоқлараро саноат ярмаркасида "Ўзтрансгаз" АЖ учун жиҳозланган ёпиқ кўргазма майдони ижарага олиш мақсадида "Ўзэкспоцентр" МКК" АЖ билан 25 525 000 сўмга тўғридан-тўғри шартнома тузиш тўғрисида.

**"15" 11 2021 йил 16-162-сонли баённома**

| | | |
|---|---|---|
| Б. Маматкаримов | ____________ | Бошқарув раисининг молия ва маркетинг бўйича ўринбосари, комиссия раиси ўринбосари |
| С. Мирзамойдинов | ____________ | Комплаенс-назорати бўлими бошлиғи, комиссия аъзоси |
| К. Каюмов | ____________ | Маҳаллийлаштириш, кооперацион алоқаларни кенгайтириш ва инновация бўлими етакчи мутахассиси, комиссия аъзоси. |
| С. Камалов | ____________ | Ғазначилик ва молия департамент бошлиғи, комиссия аъзоси |
| Ж. Киргизов | ____________ | Харидлар ва кооперацион алоқалар департаменти бошлиғи, комиссия аъзоси |
| Ш. Улугхужаев | ____________ | Юридик бўлим бошлиғи, комиссия аъзоси |
| Ж. Мансуров | ____________ | Харидлар ва кооперацион алоқалар департаменти бош мутахассиси, Харид комиссияси котиби, масъул ижрочи |
| Ф. Назаров | ____________ | Буюртмаларни қабул қилиш ва таҳлил бўлими бошлиғи, *(овоз бериш ҳуқуқисиз )* |